

O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSIDA XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING TUTGAN
O'RNI.

Ismoilov Samariddin Akbaraliyevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti KJIXIM 2-kurs talabasi ismoilovsamariddin@icloud.com,
[+998991747720](tel:+998991747720)

Pardayev Lochinbek Farhod og'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o'qituvchisi
lochinbek.pardayev@mail.ru, [+998 99 376 12 42](tel:+998993761242)

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi tashqi savdo aloqalarining oxirgi yillardagi holati tahlil qilinadi. Savdo balansidagi o'zgarishlar, eksport-import tarkibi, investitsion loyihalar va infratuzilma aloqalari chuqur tahlil qilinadi. Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni, ayniqsa sanoat va texnologik sohalardagi ta'siri, hamda ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik istiqbollari yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Xitoy Xalq Respublikasi, tashqi savdo, savdo aylanmasi, eksport, import, iqtisodiy hamkorlik, strategik sheriklik, iqtisodiy aloqalar, investitsiya, savdo balansi, sanoat hamkorligi.

Анотация: Статья посвящена анализу внешней торговли Узбекистана с Китайской Народной Республикой, особое внимание уделено экономическим отношениям, торговым связям и инвестиционному сотрудничеству. В исследовании рассматриваются статистические данные за последнего годы, роль Китая как ключевого торгового партнера Узбекистана, а также инвестиционные и транспортно-логистические проекты, которые способствуют укреплению экономических связей между странами. Также обсуждаются основные проблемы и перспективы дальнейшего развития торговли и экономического сотрудничества. В заключение подведены результаты, выделены ключевые факторы, влияющие на внешнюю торговлю и возможности для дальнейшего укрепления связей между Узбекистаном и Китаем.

Ключевые слова: Внешняя торговля, Узбекистан, Китай, Экономическое сотрудничество, Инвестиции, Транспортная логистика, Товарооборот, Экспорт, Импорт, Статистика, Инфраструктура.

Abstract: The article analyzes Uzbekistan's foreign trade with the People's Republic of China, with a special focus on economic relations, trade ties, and investment cooperation. The study examines statistical data for the years 2024-2025, China's role as a key trade partner for Uzbekistan, as well as investment and transport-logistics projects that contribute to strengthening economic ties between the two countries. The paper also discusses the main challenges and prospects for the further development of trade and economic cooperation. In conclusion, the results are summarized, and key factors affecting foreign trade and opportunities for further strengthening ties between Uzbekistan and China are identified.

Keywords: Foreign trade, Uzbekistan, China, Economic cooperation, Investments, Transport logistics, Trade turnover, Export, Import, Statistics, Infrastructure.

Globalizatsiya sharoitida har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi tashqi savdo aloqalarining kengayishi bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda tashqi iqtisodiy siyosatini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Xitoy Xalq Respublikasi esa O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

sifatida alohida o‘rin tutadi. 2024–2025 yillardagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoy bilan bo‘lgan savdo hajmi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, sanoat, energetika, transport va infratuzilma kabi strategik sohalardagi hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish bugungi kun iqtisodiy jarayonlarini chuqur anglash, hamda istiqboldagi hamkorlik imkoniyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarbdir.

Bugungi kunda jahondagi geoiqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida davlatlar o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yanada faollashtirib, global savdo tizimidagi o‘rmini mustahkamlashga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda ochiq iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda tashqi savdo aloqalarini kengaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, Osiyo mintaqasining yirik iqtisodiyoti – Xitoy Xalq Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Xitoy O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri sifatida, nafaqat import va eksport operatsiyalarida, balki investitsiya, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika sohaslarida ham faol ishtirok etmoqda. 2024–2025 yillardagi statistik ma’lumotlar Xitoy bilan savdo aylanmasining salmoqli o‘ringa ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi.



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **31 828,2** +8,5 %

(2023- y.: 29 341,5)



Saldo

2024- y.: **-5 842,9** (2023- y.: -4 719,6)



Eksport

2024- y.: **12 992,7** +5,5

(2023- y.: 12 310,9)

TSAdagi ulushi, % da

40,8



Import

2024- y.: **18 835,5** +10,6 %

(2023- y.: 17 030,5)

59,2



O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashga alohida e’tibor bera boshladi. Bu jarayonda Osiyo mintaqasidagi eng yirik iqtisodiyot – Xitoy Xalq Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. 1992 yilda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lib, shundan buyon savdo, investitsiya, texnologik almashinuv, transport-logistika sohaslarida hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshlarida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo hajmi cheklangan bo‘lsa-da, 2010-yillarga kelib bu ko‘rsatkich keskin oshdi. Bunga O‘zbekistonning ochiq iqtisodiy siyosatga o‘tishi, Xitoyning esa Markaziy Osiyoga nisbatan geoiqtisodiy qiziqishi ortgani sabab bo‘ldi. 2013 yilda ilgari surilgan “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasida O‘zbekiston mazkur tashabbusning muhim ishtirokchisiga aylandi va bu ikki tomonlama savdo aloqalarini yangi bosqichga olib


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

chiqdi[1]. Shuningdek, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida bir qator hukumatlararo bitimlar imzolangan bo‘lib, ular savdo, investitsiya, bojxona, transport va energetika sohalarini qamrab oladi. Bugungi kunda har yili muntazam ravishda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston-Xitoy iqtisodiy forumi ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishda muhim platformaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hamda xalqaro iqtisodiy tahlil markazlari bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSH dollarini tashkil etgan[2]. Bu 2023 yilga nisbatan 3,8% o‘shishni anglatadi. Xitoy esa 12,49 milliard dollarlik savdo hajmi bilan mamlakatning eng yirik savdo hamkori sifatida qayd etilgan (ulushi – 18,9%). Xitoy bilan tashqi savdoning ichki tarkibiga e‘tibor qaratilsa, eksport hajmi 2,05 milliard dollar, import esa 10,43 milliard dollarni tashkil qilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston asosan Xitoydan tovarlar va texnologiyalar import qilmoqda. Asosiy eksport mahsulotlariga rangli metallar, kimyo mahsulotlari, meva-sabzavotlar, ipak va ba‘zi tayyor mahsulotlar kiradi.

Import esa, asosan, sanoat uskunalari, qurilish materiallari, elektr texnikasi, mashinasozlik jihozlari va iste‘mol tovarlaridan iborat. 2025-yilning dastlabki ikki oyi — yanvar–fevral oylari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, Xitoy bilan savdo hajmi 2,08 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2024-



yilning shu davriga nisbatan biroz pasayishni ko‘rsatadi. Jumladan, eksport hajmi 306,7 million dollar, import esa 1,78 milliard dollarni tashkil etgan. Ushbu ma‘lumotlar O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi tashqi savdo aloqalarining yuqori dinamikaga ega ekanligini, biroq savdo balansida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu nomutanosiblik, asosan, O‘zbekistonning sanoat ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatining cheklanganligi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo balansida sezilarli nomutanosiblik mavjud. 2024 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Xitoyga 2,05 milliard dollarlik eksport qilgan bo‘lsa, import esa 10,43

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**VOLUME-5, ISSUE-5**

milliard dollarni tashkil etgan[3]. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning Xitoyga bo'lgan savdo defitsitini 8,38 milliard dollar darajasiga olib keladi. Bunday nomutanosiblik, asosan, Xitoydan import qilinadigan sanoat uskunalari, texnologiyalar va xom ashyo hajmining ortib borishi bilan bog'liq. Savdo balansidagi bu o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotiga ikki tomondan ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, Xitoydan import qilingan zamonaviy texnologiyalar, mashinasozlik jihozlari va sanoat uskunalari mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi va sanoat sohasida modernizatsiya jarayonini tezlashtirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Biroq, boshqa tomondan, importning yuqori hajmi va savdo defitsitining davom etishi mamlakat iqtisodiyotiga bosim o'tkazmoqda. O'zbekistonning to'lov balansida bu nomutanosiblik, ayniqsa, uzoq muddatda valyuta resurslarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Xitoydan olib kelinadigan mahsulotlar asosan tayyor mahsulotlar bo'lib, ular raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha qiymat yaratmaydi. Shu sababli, eksportni diversifikatsiya qilish va mahalliy sanoatni rivojlantirish orqali savdo balansidagi o'zgarishlarni bartaraf etish zarurati mavjud. Xitoy bilan savdo aloqalarining salmoqli ulushi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Ammo, ushbu nomutanosiblikni kamaytirish va balansni yaxshilash uchun O'zbekistonning ichki ishlab chiqarishni kuchaytirish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va sanoatni diversifikatsiya qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekistonning eng yirik investitsiya hamkorlaridan biri bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi investitsion hamkorlik so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar, balki sanoat loyihalari, texnologik almashinuv va savdo-sanoat kooperatsiyasida ham o'z aksini topgan. Xitoyning O'zbekistonga sarmoya kiritishidagi asosiy yo'nalishlar sanoat, energetika, qurilish va transport sohaslarini qamrab oladi. O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida importni qisqartirish va ichki ishlab chiqarishni kuchaytirish maqsadida, Xitoy bilan sanoat kooperatsiyasi alohida o'rin tutadi. Xitoyning ilg'or texnologiyalari, avtomobilsozlik, elektronika va qurilish materiallari sohasidagi tajribasi O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, 2024–2025 yillarda Xitoy sarmoyalari O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa yirik shaharlaridagi infratuzilma loyihalariga, ayniqsa, temiryo'l va avtomobil yo'llari qurilishiga, energiya ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan[4]. O'zbekistonning iqtisodiy zonalari va texnologik parklarida ham Xitoyning ilg'or texnologiyalari asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. Xitoy bilan hamkorlik, shuningdek, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish uchun muhim rol o'ynaydi. Xitoyning ilg'or texnologiyalari va sanoat uskunalari joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda Xitoy bilan o'tkazilayotgan qo'shma ishlab chiqarishlar va texnologik kooperatsiya muhim o'rin tutadi. Xitoyning O'zbekistondagi investitsiyalari, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Xitoy kompaniyalari, o'z navbatida, O'zbekiston bozoriga yangi texnologiyalarni kiritib, mahalliy sanoatni yanada raqobatbardosh qilishga yordam bermoqda.

Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi transport-logistika aloqalari ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning eng muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish va

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**VOLUME-5, ISSUE-5**

mintaqadagi transport yo'llarini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashabbus Xitoyning Yevropa va Markaziy Osiyo bozorlariga olib boradigan eng qisqa va arzon yo'l sifatida O'zbekistonni markaziy tranzit nuqtasi sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xitoy bilan transport sohasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri temiryo'l va avtomobil yo'llari qurilishidir. Xitoy tomonidan moliyalashtirilgan yirik infratuzilma loyihalari O'zbekistonning transport tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda Xitoy sarmoyalari bilan amalga oshirilayotgan temiryo'l tarmoqlarining kengayishi, yangi avtobus va transport vositalari olib kelinishi, shuningdek, logistika markazlarining qurilishi mamlakatning savdo va tranzit imkoniyatlarini kengaytiradi. Xitoyning transport tizimi orqali O'zbekistonning eksport va import jarayonlari osonlashmoqda. Masalan, 2024 yilda Xitoydan O'zbekistonga avtomobil transporti orqali olib kelinadigan tovarlar hajmi 1,5 milliard dollarga yetdi[5]. Bundan tashqari, temiryo'l orqali O'zbekiston va Xitoy o'rtasida yiliga millionlab tonnalab yuklar tashiladi, bu esa ikki davlatning savdo hajmini yanada oshirishga yordam beradi. Xitoyning infratuzilma loyihalarida ishtiroki nafaqat transport sohasida, balki logistika va yuqori texnologiyali transport tizimlarining rivojlanishida ham o'z aksini topmoqda. Shuningdek, Xitoy kompaniyalari O'zbekistonda konteyner tashish va logistika markazlarining faoliyatini rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda. Bu esa O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari o'ta yuqori dinamikaga ega bo'lsa-da, ba'zi muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri savdo balansining nomutanosibligi bo'lib, bu O'zbekistonning Xitoyga bo'lgan importining yuqori hajmi bilan bog'liq. Import va eksport o'rtasidagi katta farq, O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi qarzlar bilan bog'liq xavfini oshiradi. Xitoydan import qilinadigan mahsulotlar ko'pincha tayyor va yuqori texnologiyali bo'lib, bu o'z navbatida mahalliy ishlab chiqarish sohasida raqobatbardoshlikni kamaytiradi. Shuningdek, bojxona to'siqlari, logistika muammolari va valyuta noturg'unligi ham ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoydan import qilinadigan tovarlar ko'plab bojxona nazoratlaridan o'tadi, bu esa vaqtni va xarajatlarni oshiradi. O'zbekistonning ayrim bojxona protseduralari ham import-eksport jarayonlarini qiyinlashtirishi mumkin. Yana bir muammo – transport infratuzilmasining ba'zi joylarda yetishmasligi, ayniqsa, uzoq masofalarga yuk tashishda yuzaga keladigan kechikishlar va qo'shimcha xarajatlar.

Bundan tashqari, valyuta noturg'unligi va inflyatsiya ham tashqi savdo aloqalarini ta'sir qiladi. Xitoy bilan savdo qilishda O'zbekiston valyutasi, so'mning qadrining o'zgarishi import xarajatlarini oshirishi yoki eksportni qiyinlashtirishi mumkin. Valyuta kursining o'zgarishi ham xitoylik investorlar uchun risklarni yaratishi mumkin, bu esa investitsiyaviy hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ushbu muammolarni hal qilish uchun bir qator istiqbolli chora-tadbirlar mavjud. Xitoy bilan savdo balansini yaxshilash uchun O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, yangi eksport bozorlari ochish va sanoatni diversifikatsiya qilish zarur. Bundan tashqari, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali savdo balansidagi nomutanosiblikni kamaytirish mumkin. Logistika va transport muammolarini hal qilish uchun Xitoy bilan bo'lgan qo'shma loyihalarni kuchaytirish, temiryo'l va avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirish hamda konteyner tashish tizimini kengaytirish zarur. Bundan tashqari, bojxona tizimlarini soddalashtirish, raqamli bojxona xizmatlarini joriy etish va savdo jarayonlarini avtomatlashtirish ham muammolarni hal etishda yordam beradi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

tashqi savdo aloqalarining istiqbollari juda yuqori. Ikkala davlatning iqtisodiy siyosatlari va hamkorlikka bo'lgan qiziqishi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Kelajakda, Xitoyning yuqori texnologiyalari va investitsiyalari orqali O'zbekistonning sanoat, transport, energetika va boshqa sohalarda innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari oshadi. Shuningdek, Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash O'zbekistonning mintaqadagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tashqi savdo aloqalari so'nggi yillarda keskin rivojlanib, ikki davlatning iqtisodiy hamkorligini yangi bosqichga olib chiqdi. Xitoy, O'zbekistonning eng yirik savdo hamkori sifatida, mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Savdo balansida mavjud bo'lgan nomutanosiblik, ya'ni O'zbekistonning Xitoydan import qilgan mahsulotlari hajmining kattaligi, hozirda muammolarga olib kelmoqda, lekin bu holat O'zbekistonning sanoat va texnologiyalarni modernizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyojini anglatadi. Xitoyning sarmoyalari va ilg'or texnologiyalarining joriy etilishi O'zbekistonning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yordam bermoqda. Transport va logistika sohasida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar, o'z navbatida, mintaqadagi savdo aloqalarini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda.

Biroq, savdo aloqalaridagi ba'zi muammolar, jumladan, infratuzilma cheklovlari, bojxona to'siqlari va valyuta kursining o'zgarishi, hali ham iqtisodiy aloqalarni samarali amalga oshirishda to'siq bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun, O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va ichki ishlab chiqarishni kuchaytirish zarur. Kelajakda, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tashqi savdo aloqalari yanada rivojlanishi va ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi imkoniyatlarini yaratishi kutilmoqda. Xitoyning investitsiyalari, texnologiyalari va infratuzilma loyihalari orqali O'zbekistonning global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlanadi va savdo aloqalarining kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi. [2024]. "O'zbekiston tashqi savdosining 2024 yildagi holati". O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.
2. Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi savdo vazirligi. [2024]. "Xitoyning O'zbekiston bilan savdo-iqtisodiy aloqalari". Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi savdo vazirligi hisobotlari.
3. Islomiy taraqqiyot banki. [2024]. "Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik". O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. [2024]. "Valyuta kursining o'zgarishi va uning tashqi savdo aloqalariga ta'siri".
5. Zokirov, Sh., & Xudoyberganov, S. [2024]. "Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalari". Tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya.
6. World Bank. [2024]. "The Economic Impact of China's Investments in Uzbekistan". World Bank Report.
7. Asian Development Bank. [2024]. "Logistics and Transport Cooperation between China and Uzbekistan". ADB Regional Report.
8. Tashkent Institute of Finance. [2024]. "O'zbekistonning Xitoy bilan tashqi savdo aloqalaridagi muammolar va istiqbollari". O'zbekiston iqtisodiyoti: jahon bozoridagi o'rin.
9. Shomansurov, A. [2025]. "Tashqi savdo va iqtisodiy diplomatiya: O'zbekistonning Xitoy bilan aloqalari". Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali.